

"DENGIZKO'L" (BUXORO) TABIIY MINERAL TUZINING TARKIBIDAGI KALTSIY MIQDORINI ANIQLASH

Raximova Erkinoy Egamberdiyevna
Saidmurodov Samandar Abdumalik o'g'li
 Alfraganus University NOTT, Toshkent, O'zbekiston
 e-mail: erkinoyrakhimova@gmail.com.

Dolzarbli: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-oktabrdagi PQ-3968-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq xalq tabobatining samarali va xavfsiz usullaridan foydalangan holda tibbiy xizmat ko'rsatish tartibi va hajmini oshirish belgilandi. Shuning uchun ancha yillar davomida xalq tabobatida turli xil kasalliklarni davolash maqsadida foydalanib kelinayotga Buxoro dengiz ko'l mineral tuziga e'tibor qaratdik. Dengizko'l tuzlarida inson salomatligiga foydali ta'sir ko'rsatadigan shifobaxsh xususiyatlarga ega noyob tabiiy makro-mikroelementlardan biri bo'lgan kaltsiy mavjudligi aniqlangan [1,2]. Makro-mikroelementlar inson tanasining normal ishlashi uchun zarur bo'lgan moddalardir, ular mikroelementlarga qaraganda ko'proq talab etiladi. Bularga kaltsiy, magniy, natriy, kaliy, oltingugurt, fosfor kabi elementlar kiradi. Minerallarning organizimga ta'siri uning tarkibidagi element tarkibiga ham bog'liq bo'ladi. Mahalliy shifobaxsh mineral tuzlarni tarkibini ilmiy asosida o'rganish dolzarb vazifalardan hisoblanadi [3,4].

Tadqiqotning maqsadi: "ISP OES induktiv bog'langan plazma bilan optik emissiya spektroskopiya" usulida Olot sho'r ko'li tuzining tarkibidagi kaltsiy miqdorini o'rganish maqsad qilib olindi.

Usul va uslublar: Olot sho'r ko'li tuzining 0,1 g aniq tortma olinib, minerarilzatsiya qilindi, so'ngra eritmani Perkin Elmer firmasining Avio-200 (ICP-OES) induktiv bog'langan plazmalı optik emission spektrometrida, namunalarning tarkibidagi kalsiy elementi miqdori kiritilgan standart namunaga nisbatan miqdoriy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil natijalari jarayon yakunida namunaning massasi va suyultirish qiymatlari asosida olingan natijalarni qayta hisoblab aniqlik darajasi va undan chetlanish (RSD) qiymatlarini avtomatik tarzda hisoblab berdi. Bu usul dorivor o'simliklar va mineral moddalar tarkibidagi makro-mikroelementlar tahlilida juda keng miqyosida qo'llanilib kelinmoqda [5,6,7].

Natijalar: Olot dengizko'l tuzining tarkibini organish natijasida kaltsiy -1,255 ni tashkil qildi. Tahlil natijalari 1-jadvalda tasvirlangan.

1-jadval

Olot sho'r ko'li tuzining makroelement tahlili

| Element nomi | Mg/kg |
|--------------|-------|
| Ca | 1,255 |

Xulosalar: dengiz tuzlari tarkibida hayotiy (muhim) kimyoviy elementlar mavjud, shuning uchun dengiz tuzlari tabiat in'om etgan shifobaxsh vosita hisoblanadi. Mineral tuzlar to'qimalarda regenerativ jarayonlarni rag'batlantiradi, yaralarning tez shifo berishiga yordam beradi. Antiseptik, yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi xususiyatlarga ega. Olot dengizko'l tuzining kimyoviy tarkibi inson organizmi uchun foydali elementlarga boy ekanli tajribalar orqali aniqlandi. Bu tuz tarkibida kaltsiy elementi aniqlanib, ularning sifat va miqdoriy tarkibi

o'rganildi. Ushbu tuzning tarkibida eng ko'p miqdorda uchragan kalsiy miqdori inson salomatligi uchun yetarli miqdorda uchrashi kuzatildi. Olot dengizko'l tuzining foydali elementlarga boy ekanligi, bu tuzlardan kelajakda xalqimiz uchun foydali kosmetsevtik vositalarni ishlab chiqarish muhim ahamiyat kasb ettirad.

Adabiyotlar:

1. Egamberdiyevna, E. R. E., & Sodiqovich, J. F. (2024). The Use of Natural Mineral Salts" Dengizkul"(Bukhara) in Psoriasis. American Journal of Pediatric Medicine and Health Sciences (2993-2149), 2(1), 260-262.
2. Rakhimova E.E., Jalilov F.S., Saidkarimova Yo.T. (2023). Tabiiy mineral tuzlarning xalq tabobatida teri kasalliklarida ishlatilishi. Abu Ali ibn Sino va zamonaviy farmatsevtikada innovatsiyalar mavzusidagi VI xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plami, Toshkent(295 B.)
3. Egamberdiyevna E. E., Nurullayevich M. S., Rustamovna G. D. The Form of Ointment Drug and its Role in the Pharmaceutical Market of Uzbekistan //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – T. 4. – №. 1. – С. 276-282.
4. Рахимова, Э.Э., Жалилов, Ф.С., Саидкаримова Ё.Т. (2022). Табiiй минерал тузларнинг халқ табобатида ишлатилиши. «Актуальные вопросы фармакологии: от разработки лекарств до их рационального применения» сборник тезисов, Бухара, Узбекистан (126 бет.)
5. Parisi R, Symmons DP, Griffiths CE, Ashcroft DM. Global epidemiology of psoriasis: a systematic review of incidence and prevalence. J Invest Dermatol. (2013) 133:377–85. doi: 10.1038/jid.2012.339
6. Jalilov, f. J., kulliev, o. A., & khabibullaev, s. M. (2024). Evaluation of the effect on metabolism of sodium cyclamate when administered to experimental animals. Journal of healthcare and life-science research, 3(1), 82-85.
7. Sodiqovich, j. F., & akramova, d. (2023). Achchiq shuvoq o'simligining tarkibi, farmakologik xususiyatlari va tibbiyotdagi ahamiyatini o'rganish bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarga qisqa sharx. Journal of new century innovations, 37(2), 196-205.